

TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKILLANIDA INSON KAPITALI DARAJASI

Djurayeva Dilfuzaxon Mirzoshariffovna

Farg'ona viloyati Rishton tumani 1-son kasb hunar maktabi

Biznes asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tadbirkorlik ko'nikmalarini shakillanida inson kapitali darajasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: mamlakatlar, inson kapitali, xarajatlar, qondirilmagan talablar, kambag'allik darajasi, investitsiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini xotin qizlarni, yoshlarni kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish orkali uzuzini bandligini ta'minlash lozimligi" ta'kidlab o'tildi va o'z o'zini bandligini ta'minlash maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali xalqning turmush darajasini yaxshilash, aholining real daromadlarini oshirish va yoshlarning bandligini ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularda ishbilarmonlik kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatda rasman ish bilan band bulmagan 1 million 400 mingga yaqin ayollar va yoshlar bo'lib, respublika aholisining 12-15 foizi yoki 4-5 million kishi kambag'allik darajasida kun kechirmoqda. Iqtisodiy faol aholining 9,0 foizi yoki 1,4 millionga yaqin kishi ishga muhtoj, ayollar va yoshlar o'rtasida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 12,5 va 14,9 foizini tashkil etmoqda.

Bu esa mamlakatimiz aholisini tadbirkorlikka o'rgatish, kasbiy malakasini oshirish orqali kambag'allikni kamaytirish eng asosiy masala hisoblanadi. Shuningdek, kambag'allik darajasidan o'rta sinf darajasiga oshirish uchun kambag'al va ishsiz shaxslarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish, shu asosda ular uchun doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish o'ta muhimdir.

Inson kapitalining rivojlanishi odamlar, iqtisodiyotlar, jamiyatlar va butun dunyoda barqarorlik uchun ahamiyatga ega. Bu kelgusi avlodlar uchun ham muhimdir.

Mamlakatlar inson kapitaliga samarali investitsiya qila olmas ekan, ayniqsa, kambag‘allar uchun katta xarajatlar yuzaga keladi. Ushbu xarajatlar kelgusi avlodlarni og‘ir ahvolga solib qo‘yadi.

Katta xarajatlarni talab etuvchi texnologik taraqqiyot tufayli fuqarolari samarali turmush kechirishi uchun zamin yaratishga qodir emaslik, nafaqat yuqori xarajatlar bilan birga kechadi, balki jiddiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa xavfsizlikka ham tahdid soladi, zero, qondirilmagan talablar tartibsizliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Eng yaxshi ma‘lumot — javobning bir qismi, faqat bir qismi, xolos. Birinchidan, agar mablag‘ yetarli bo‘lmasa, hukumat sifatli xizmat ko‘rsata olmaydi. Shu tariqa inson kapitaliga surunkali tarzda investitsiya kiritmaydigan mamlakatlar soliq nuqsonlari va istisnolarini bartaraf etishga, tushumlar yig‘ilishini yaxshilashga va xarajatlarni qayta yo‘naltirishga majbur bo‘ladi.

Masalan, Misr va Indoneziya so‘nggi yillarda energetik subsidiyalarini keskin kamaytirdi va ushbu resurslarni ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirishga qayta yo‘naltirdi.

2012 yildan 2016 yilgacha bo‘lgan davrda tamaki mahsulotlariga soliqlardan olingan daromad Filippinga sog‘liqni saqlash departamenti byudjetini hamda tibbiy sug‘urta bilan qamrab olingan aholi ulushini uch barobar oshirish imkonini berdi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining Filadelfiya shahri gazli ichimliklardan undiriladigan soliqni maktabgacha ta‘limni moliyalashda foydalanishga intilmoqda.

Ammo moliyalashtirish hajmini oshirishning o‘zi yetarli emas. Ayrim mamlakatlar ijtimoiy xizmatlar sifatini saqlagan holda, ularning samaradorligini oshirish ustida ishlashga majbur. Masalan, Jahon banki guruhi tomonidan yaqinda Braziliyada o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mahalliy darajada sog‘liqni saqlash sektorida samaradorlikning oshirilishi YAIMning taxminan 0,3 foiziga teng tejamkorlikni ta‘minlashi mumkin.

Boshqa ayrim mamlakatlarda raqobatlashuvchi tomonlarning manfaatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Chilining ta‘lim sohasini isloh qilish borasidagi ko‘p yillik tajribasi asosiy maqsadlardan biri: butun e‘tiborni ta‘lim hamma uchun qoidasiga qaratish yo‘lida siyosiy koalitsiyalar tuzishning muhimligini ko‘rsatdi.

2004 yilda mamlakat islohotlar o‘tkazish va o‘qituvchilarning kasaba uyushmalariga yon berishi orqali o‘qituvchilarga haq to‘lanishiga erisha oldi.

Ish nimadan boshlanishidan qat‘i nazar, eng yaxshi o‘lchov hal qiluvchi ahamiyatga ega. Alal-oqibat, siz faqat o‘lchay oladigan narsanigina takomillashtirishingiz mumkin. Aniq-tiniq o‘lchovlargina qanday islohotlar zarurligining barcha tomonidan tushunilishiga olib keladi. Shuningdek, ular ustuvorlik to‘g‘risidagi masalalarga aniqlik kiritishi, foydali muzokaralarga asos bo‘lishi va oshkoralikni kuchaytirishi mumkin.

1949 yilda Jahon banki prezidenti Jon MakKloy shunday yozgan edi: «Taraqqiyot — bu taxtaga chizish, soʻngra sehrli tayoqcha va dollar bilan hayotga joriy qilish mumkin boʻlgan narsa emas».

MakKloyning fikricha, taraqqiyot konsepsiyalari va ularni amalga oshirish oʻrtasida koʻp hollarda uzilishlar boʻlgan. Aynan shu uzilishlarni Jahon banki guruhining inson kapitali indeksi yordamida bartaraf etish mumkin boʻladi.

Yangi oʻlchovlar mamlakatlarni imkon qadar tezroq inson kapitaliga sarmoya qilishga ishontiradi. Bu barchani kelajak iqtisodiyotiga — u yerda uchrashi mumkin boʻlgan barcha narsalarda raqobatga va farovonlikka tayyorlaydi. Va bu global tizimga barcha birday amal qilishiga koʻmaklashadi. Inson kapitaliga investitsiya qilishga qodir boʻlmaslik taraqqiyot uchun, butun insoniyat uchun nihoyatda qimmatga tushadi.

—Oʻzbekistonda 230 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritadi. Oʻtgan yili kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakat YAIM tarkibidagi ulushi 53,3 foizni tashkil qildi.

Eksportning 27 foizi, sanoatning 39,6, qurilish sohasining 65,1 foizi nodavlat sektor hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Mamlakatda ish bilan band aholining 78,3 foizi aynan xususiy sektorda faoliyat koʻrsatyapti.

Tadbirkorlikning ishonchli huquqiy himoyasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror oʻsishi, mavjud ijtimoiy muammolarni hal qilishning muhim shartidir. Jahon bankining oʻtgan yilgi “Biznes yuritish” reytingida Oʻzbekiston 13 pogʻona yuqorilab, ishbilarmonlik muhitini yaxshilagan mamlakatlar oʻntaligidan joy oldi. “Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi toʻgʻrisida”gi Qonun qoidalari biznes manfaatlarini himoya qilishning puxta mexanizmlarini yaratish, tadbirkorlik harakatining yanada kengayishiga imkon beradi.

Binobarin, huquqiy hujjat integratsiyalashgan tadbirkorlar hamjamiyatini shakllantirish va tadbirkorlik subyektlarining, ular birlashmalarining davlat organlari bilan samarali hamkorligini taʼminlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini keng qamrab olish va ularni tadbirkorlar hamjamiyatini shakllantirish jarayoniga jalb qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

— Bir yil oldin qabul qilingan Prezident Farmoniga asosan, Savdo-sanoat palatasi tizimi tubdan isloh qilindi. Uning asosiy vazifalari belgilab olindi. Savdo-sanoat palatasi toʻgʻrisidagi amaldagi Qonun ham sezilarli darajada takomillashtirildi.

Muhim yangiliklardan biri shu boʻldiki, Savdo-sanoat palatasiga qonun ijodkorligi faoliyati bilan shugʻullanish huquqi berildi. Unga koʻra, Palata Prezident devoniga, hukumatga, vazirlik va idoralarga ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga solish masalalari yuzasidan takliflar kirita oladi va bu bilan chegaralanib qolmaydi.

Palata normativ-huquqiy hujjatlar tadbirkorlik faoliyatiga qay darajada taʼsir koʻrsatishini baholovchi xulosalar beradigan vakolatli organ sifatida belgilab olindi.

Qonunda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Savdo-sanoat palatasi bilan majburiy tartibda kelishib olinishi lozimligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, Palata mazkur sohada jamoat nazoratining asosiy subyekti ham hisoblanadi.

Qisqasi, yangi tahrirdagi Qonun normalari tadbirkorlik harakatining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

— Bir yil avval tuzilma tubdan isloh qilindi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining aniq vazifalari belgilandi. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va huquqlarini himoya qilishda tashkilotning o'rni sezilarli darajada mustahkamlandi.

Uch oy o'tib kuchga kiradigan ushbu Qonun Palataning mustaqilligini yanada mustahkamlaydi. Qolaversa, davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining Palata faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatib o'tilgani mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish erkinligining kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish maqsadida endi ish boshlayotgan tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish uchun biznes-inkubatorlar barpo qilish va faoliyatini tashkil etish ko'zda tutilgan. Bu yerda ularga biznes-rejalarni tayyorlash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotni olish hamda masalalarni hal etishda ekspert, huquqiy va maslahat yordami ko'rsatiladi.

Bozor iqtisodiyotida biznes-reja tadbirkorlikning barcha sohalarida qo'llaniladigan mehnat qurolidir. U firmaning ish jarayonini tasvirlab, firma rahbarlarining o'z maqsadlariga erishishlarini, birinchi o'rinda ishning daromadlilikini qay tariqa oshirish mumkinligini ko'rsatib beradi. Yaxshi ishlab chiqilgai biznes-reja firmani o'sib borishga, bozorda o'z mavqeini qo'lga kiritishiga, o'z taraqqiyotining istiqbollari belgilab olishiga va yangi tovarlar chiqarish hamda xizmat turlarini yaratishga hamda mo'ljallarni to'g'ri amalga oshirishga yordam beradi.

Biznes-reja doimiy hujjat bo'lib, u muntazam yangilanib boriladi, unga ham firmaning ichida, ham umuman iqtisodiyotdagi sharoitlarga qarab, ro'y bergan o'zgarishlar kiritiladi.

Biznes-reja keng, har tomonlama aniq tizimga tushirilgan va chuqur o'ylab tayyorlangan hujjat bo'lib, u firmani qay maqsadda harakat qilayotganligi, ko'zlangan maqsadga erishgandan so'ng natija qanday bo'ladi, degan savollarga javob beradi. Biznes-reja korxonalar (firma)ning strategik istiqbolini belgilab beradigan asosiy hujjat hisoblanadi.

Kichik va xususiy korxonalar o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va xom ashyo resurslari va materiallarining mavjudligini hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ishga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarni hisobga olib, taraqqiyot istiqbollari belgilaydi.

Biznes-reja quyidagi maqsadlarda tuziladi:

yangi biznes (loyiha)ni boshlash uchun;
biznesni kengaytirish uchun;
zayom kapital (investorlarni) jalb qilish uchun;
biznesni (biznes g'oyani) boshqa shaxsga sotish uchun.

Biznes-rejani tayyorlash quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi: rahbar tomonidan korxonani to'g'ri boshqarish va faoliyatni nazorat qilish; korxonaning haqiqiy faoliyatini baholash va rejaga o'zgartirishlar kiritish; banklar, investorlar va kreditorlarni korxonaga faoliyatiga baho berish uchun ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Biznes-reja kelajakdagi hamkorlar bilan muzokaralar olib borilayotganda, biznes taklif uchun asos bo'lib xizmat qiladi, u firmaning asosiy xodimlarini ishga taklif etishda katta rol o'ynaydi. Biznes-reja firmaning nafaqat ichki hujjati bo'libgina qolmay, balki undan investorlar va kreditorlarni taklif qilishda ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, biznes-reja tadbirkorlarning quyidagi savollariga javob beradi:

biznesning joriy holati (Biz qayerda turibmiz?);
ko'zlangan maqsad (qaysi tomonga harakat qilmoqdamiz?);
eng qulay yo'l (maqsadga qanday erishamiz?).

Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, biznes-rejada hozirgi xolatda ko'zlangan maqsadga erishishning samarali yo'llari ko'rsatilishi, joriy maqsadlarga erishishi, o'rta va uzoq davrlardagi vazifalari hal etilishi aks ettiriladi.

Ko'pchilik ish yurituvchilar, tadbirkorlar, korxonaga (firma) rahbarlari "Biznes-reja" qachon kerak deyilganda, bankdan ssuda yoki sarmoyadordan qarz mablag'i olishda zarur bo'ladigan hujjat deb hisoblaydi. Shu sababli ayrim qo'shimcha mablag' talab etilmayligan, korxonalar biznes-reja tuzmaydilar. O'z navbatida rejalashtirish jarayonini to'lig'icha to'g'ri tushunmaydilar va uning afzalligi, foydasi haqida yetarli tasavvurga ham ega bo'lmaydilar. Bunday qarashlar noto'g'ri hisoblanadi. Mulk formasidan qat'i nazar barcha tadbirkorlik faoliyati uchun biznes-reja zarurdir.

Ta'lim oluvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish shart sharoitlari.

Davlatimiz tomonidan yoshlarning tadbirkorlik sohasidagi bilim va malakalarini oshirish ko'lamini yanada kengaytirish, ularning tadbirkorlik faoliyatiga to'g'ri yo'nalish beruvchi tizimni tashkil etish va shu orqali tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan yoshlarni tadbirkorlik faoliyatga keng jalb etish maqsadida bir qancha tanlovlar o'tkazib kelinmoqda ("Mening biznes g'oyam", "Yosh tadbirkor-yurtga madadkor", "Start up").

-Ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga oid axborot-ma'lumotlar bilan ta'minlash;

-Tadbirkorlik faoliyati bo'yicha bilimlarni o'z ichiga olgan o'quv materiallar mazmunini takomillashtirish: maxsus va o'quv kurslar, o'quv va elektron qo'llanmalar ishlab chiqish;

-Ta'lim oluvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitishning ijtimoiy yo'nalishlari: "Yosh tadbirkorlar" biznes-klublari, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazi va tadbirkorlik asoslariga o'qitishni tashkil etish markazlari

-Ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitish – tadbirkorlik faoliyati bo'yicha bilimlarni o'z ichiga olgan o'quv materialini mazmunini boyitishni taqazo etadi. Chunki, tadbirkorlik faoliyati hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'rinni egallaydi. Hozirgi davrda mamlakatimiz bozor munosabatlari rivojlantirib borayotgani sababli ham, aynan, tadbirkorlik sohasini rivojlantirish aholining turli qatlamlarining bozor munosabatlariga tayyorgarligini va butun xo'jalik tizimining bozor iqtisodiyotiga o'tishini ta'minlashga yo'naltirilgan davrda jamiyatimizni ijtimoiy qayta qurishning asosini tashkil etib bormoqda.

Ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitishda ta'lim oluvchilarning tadbirkorlik faolligi va ichki salohiyatini rivojlanishini, kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalarni an'anaviy o'qitish shakllari bilan uyg'un holda qo'llash muhim hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik innovatsiyalar va o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarning kelgusida kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli yuritishlarini, kasbiy va shaxsiy rivojlantirib, turmushning tezda o'zgaruvchan sharoitlariga moslashishlarini, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlari uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni yuqori darajada egallashlari uchun xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichlari ta'lim maqsadlari va vazifalariga, o'qitish shakllari va metodlariga yangidan-yangi talablarni qo'yimoqda.

Bo'lajak mutaxassislarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitishning yangi shakl va samarali metodlarini izlab topish va ularni joriy qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu vazifani hal qilishda axborotni intensiv uzatishga, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, bir vaqtning o'zida ham maxsus, ham axloqiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlariga tayanadigan intensiv o'qitish texnologiyalari katta ahamiyatga ega. O'qitishning interfaol shakllari o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim oluvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi, nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, ham mustaqil, ham jamoaviy qarorlarni qabul qilish qobiliyatini shakllantirish, muammoli vaziyatlarni hal qila olish ko'nikmalarining egallash, kelisha olish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Biznes-klub loyihasini amalga oshirish jarayoni quyidagilarni bajarishga imkon berdi:

1. Bo'lajak tadbirkorlar bilan amalda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan bevosita aloqalar o'rnatish.

2. Bo'lajak tadbirkorlarning o'z ishini olib borish masalalari bo'yicha muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan amaliy tajriba almashish.

3. Tadbirkorlar faoliyati bilan ularning funksiyalarini takrorlash orqali amaliy tanishish.

4. Ta'lim oluvchi-yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish.

5. O'z biznes g'oyalari amalga oshirish va boshqalar.

Ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish sharoiti sifatida kollejlarda "Yosh tadbirkorlar" biznes-klubi yoki yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik asoslarini o'rgatish markazlarini tashkil etishni taklif etamiz.

"Yosh tadbirkorlar" biznes klubining maqsadi o'z ishini tashkil etishni rejalashtirayotgan ta'lim oluvchilarga murabbiylik tizimi orqali amaliy yordam va maslahatlar berishdan iborat. Mazkur biznes-klub loyihasini amalga oshirish jarayoni quyidagilarni bajarishga imkon berdi:

1. Bo'lajak tadbirkorlar bilan amalda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan bevosita aloqalar o'rnatish.

2. Bo'lajak tadbirkorlarning o'z ishini olib borish masalalari bo'yicha muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan amaliy tajriba almashish.

3. Tadbirkorlar faoliyati bilan ularning funksiyalarini takrorlash orqali amaliy tanishish.

4. Ta'lim oluvchi-yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish.

5. O'z biznes g'oyalari amalga oshirish va boshqalar.

Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim oluvchilar biznes-rejaning mohiyati va zaruriyati hamda uni tuzish tartib-qoidalarini bilishlari lozim.

Biznes-klub faoliyatining asosiy yo'nalishlari esa quyidagilar hisoblanadi: tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga alohida istak, hohish va qobiliyati bo'lgan ta'lim oluvchilarni aniqlash;

kasb-hunar kollejlari ta'lim oluvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, qiziqishlarini o'rganish;

ta'lim oluvchilarda tadbirkorlik sohasi bo'yicha chuqur bilimlarni shakllantirish tadbirlarini amalga oshirish;

ta'lim oluvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida Savdo-sanoat palatasi, texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan korxonalar bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirish; tadbirkorlik faoliyatida yuqori natijalarga erishgan tajribali va malakali mutaxassislarni jalb etgan holda kasb-hunar kollejlari,

tuman (shahar) hududlari miqyosida davra suhbatlari, seminarlar, treninglar va master klass darslarini tashkil etish; iqtidorli ta'lim oluvchilar va mas'ul o'qituvchilar uchun tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha biznes-rejalarni tayyorlashni o'rgatish; tijorat banklaridan tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun kredit olish tartibi hamda olingan pul mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish bo'yicha tijorat banklarining tegishli mutaxassislarini jalb etgan holda maxsus o'quv kurslarini olib borishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 704-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 iyundagi "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5087-sonli Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2897-sonli qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyuldagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son farmoni.

6. «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2018 yil 27 iyundagi 5466-sonli Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2018 yil 7 iyundagi "Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risidagi PQ-3777-sonli Qarori.

8. <https://scholar.google.com/citations?user=Kd2Pv-oAAAAJ&hl=ru>